

ARIQ KOMPONENTLI GIDRONIMLAR

V.T.Nafasova,
O'zbek tilshunosligi kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)
Qarshi Davlat Universiteti

Annotatsiya

Maqolada Janubiy O'zbekiston hududidagi ariq komponentli gidronimlar turli ma'noviy guruhlarga ajratilgan holda tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируются гидронимы Южного Узбекистана компонентом арык. Также они классифицированы по лексическому значению.

Annotation

Hydronyms of Southern Uzbekistan are analyzed in the article. Furthermore they are classified by lexical meaning.

Kalit so'zlar: onomastika, gidronim, gidronimiya, ariq, atoqli ot, apellyativ leksika.

Ключевые слова: ономастика, гидроним, гидронимия, арык, собственные имена, апеллятивная лексика.

Key words: onomastics, hydronym, hydronymy, ditch, proper names, appellative vocabulary.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da ariq leksemasi “sun'iy ravishda hosil qilingan suv yo'li, o'zani va undagi suv, ekin ekish va sug'orish uchun ekin maydonida tortilgan maxsus suv yo'li, jo'yak” deb izohlangan [ЎТИЛ, I, 98]. Turkistonda 19-asrda daryodan boshlangan bosh ariqlarni boshqaruvchi mirob ariq oqsoqoli deb yuritilgan [ЎМЭ, I, 410].

Sh.Rahmatullayev ariq so'zining etimologiyasi haqida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: “kichik oqin suv yo'li”. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “oq” ma'nosini anglatgan a:r- fe'lidan - (ы)q qo'shimchasi bilan yasalgan [ЭСТЯ, I, 188]; keyinroq a: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan [Девон, I, 96]; o'zbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan, ы unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: a:r+ыq = a:гыq>агыq >äriq” [ЎТЭЛ, I, 31-32].

O'zbek tilida **o'qariq** termini ham qo'llaniladi. Izohli lug'atda **o'qariq** terminiga “ekin maydonida jo'yaklarga suv tarqatish uchun olingan markaziy ariq” tarzida izoh berilgan [O'ТИЛ, I. 98].

O'zbekistonda gidrografik obyektlarga turli nomlar beriladi. Agar biror bir hududda birgina ariq mavjud bo'lsa, uni soddagina qilib Ariq deb atash mumkin, chunki bu apellyativ so'z yasovchi qo'shimcha va leksemalarsiz ma'lum bir kichik hududda atoqli ot vazifasida qo'llanilishi mumkin. Ariq leksemali qo'shma so'zlarning keng tarqalishi har bir ariqqa onomastik usulda nom berishni taqozo etadi. Bunday hollarda, nom tanlashda nomlanayotgan obyektning boshqa shu turdagi obyektlardan farqli belgilari asos qilib olinadi. Masalan, Yangiariq, Kattaariq, Toshariq, Do'ngariq, Beshkentariq, Maydaariq, Chashmaariq, Qo'shshaariq, G'arovariq, Novariq, Daryoariq, Sayozariq, Qumliariq, Ko'chkakariq, Loyariq, Qizilariq, Damariq, Tegirmonariq, Yovonariq, Sho'rariq, Bo'lmasariq, Bog'otariq kabi.

Kuzatishlarimizga ko'ra, "ariq" komponentli toponimlar Janubiy O'zbekistonda ko'plab uchraydi va ularning soni mingdan ortiq. Bu toponimlar turli ko'rinishlarga mansub: gidronimlar, oronimlar, oykonimlardir. Shuni aytish mumkinki, nutqimizda paydo bo'lgan gidronimlar keyinchalik oykonimlarga aylangan: Beshariq – gidronim, hozirda oykonim, Qo'shshariq – gidronim, hozirda qishloq nomi, Yangiariq – gidronim, hozirda qishloq nomi.

Ariq leksemasi bilan hosil bo'lgan qo'shma gidronimlarning leksik-semantik tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning nomlanish usullari turlicha. Janubiy O'zbekiston hududidagi gidronimlar, asosan, ularning oqimi, joylashuv relyefi, obyektning topografik sharoitlari, suvning hajmi, rangi va gidroobyektning vazifasi (maqsadi)ga ko'ra nomlanadi.

Ariq nomlarini quyidagi xususiyatlariga qarab ajratish mumkin:

1. Ariqqa quyiladigan suvning boshlanish manbasiga ko'ra: Kanalariq (Kitob t.), Daryoariq (Kasbi t.), Chashmaariq (Yakkabog' t.), Korizariq, Selariq (Kitob t.).
2. Hajmi va kattaligiga ko'ra: Kattaariq (Sariosiyo t.), O'rtaariq (Boysun t.), Kengariq (Koson t.), Kichikariq (Qarshi t.), Maydaariq (Koson t.), Uzunariq (Shahrisabz t.), Torariq (Koson t.), Mo'rchaariq (Yakkabog' t.).
3. Ariqning joylashuv o'rniga ko'ra: Pastariq (Jarqo'rg'on), Do'ngariq (Chiroqchi), Balandariq (Koson), Tepaariq (Koson), Ko'tarmaariq (Koson), Jarariq (Denov), Yonabetariq (G'uzor t.).
4. Suv oqimining holatiga ko'ra: Tezariq, Tezobariq, Sekinariq, Yugurikariq (Mirishkor t.), Toshvaqaariq (Qamashi t.).
5. Miqdor belgisiga ko'ra: Uchariq (Denov, Kitob t.), Qo'shshaariq (Qamashi t.), Beshariq (Jarqo'rg'on t.).
6. Joylashuv o'rniga ko'ra: Ko'chkakariq (Koson t.), Fayzobodariq (Qarshi t.), Aparidiariq (G'uzor t.), Po'latiariq (Koson t.), Denovariq (Kasbi t.), Chovqayariq (Qarshi t.), G'o'bdinariq (Qarshi t.), Potronariq (Qarshi t.), Bo'lmasariq (Koson t.), Qatag'onariq (Shahrisabz t.), Shirkenariq (Nishon t.), Beshkentariq (Koson t.), Lag'monariq (Qarshi t.), Kerayitariq (G'uzor t.), Oqravotariq (Qumqo'rg'on t.).

7. Ariqning chuqur, sayozligiga ko'ra: Sayozariq (Koson t.), Chuqurariq (Qarshi, Sherobod, G'uzor, Chiroqchi t.).
 8. Millat, elat, qavmga tegishliligiga ko'ra: O'zbekariq (Uzun t.), Turkmanariq (Muborak t.), Xitoyariq (Koson t.), Tojikariq (G'uzor t.), Arabariq (Yakkabog', Koson, Kitob, Sherobod t.), Kiyikchiariq (Kasbi, Sho'rchi t.), Saroyariq (G'uzor t.), Sarig'ariq (Muzrabod, Sariosiyo t.).
 9. Ma'lum bir shaxsga tegishliligi yoki kim tomonidan qazilganiga ko'ra: Mirzaariq, Maxamqulariq (Shahrisabz t.), Sherbekariq, Fozilariq (Qarshi t.) Boyqobilariq, Begmatariq (Yakkabog' t.), Ochilariq, Maqsad oqsoqolariq (Koson t.), To'raqulariq (Nishon t.) Mo'minchaariq (G'uzor t.), Begmatariq, Xo'jaariq, Bozorariq (Kitob t.), Niyozariq, Xoliqariq, Ochilariq, Toirariq, Mo'minariq, Murodariq (Qamashi t.), Hukumatariq (Shahrisabz t.).
 10. Suvning rangiga ko'ra: Loyqaariq (Koson t.), Oqariq, Loyariq, Qizilariq (Sherobod t.), Qoraariq (Sho'rchi t.).
 11. Ariq yoni va ichining betonlashiga ko'ra: Betonariq (Qamashi, Qarshi, Sariosiyo t.), Sementariq (Qiziriq, Qamashi t.).
 12. Ariq atrofida o'sgan daraxt turiga ko'ra: Chinorariq (Shahrisabz t.), Tolariq (Qamashi t.), Tutliariq (Boysun t.), Jiydaariq (Qamashi t.).
 13. Ariq atrofida o'sgan o'simlik turiga ko'ra: Yalpizariq (Kasbi, Dehqonobod t.), Ajriqliariq (Kasbi t.), Qamishliariq (Koson t.), O'tariq (G'uzot, Qamashi t.), O'tliariq (Kasbi t.).
 14. Ariq yo'nalishining to'g'riligiga: Egriariq (Qamashi t.), Iyriariq (Yakkabog' t.).
 15. Ariq tagida cho'kib qolgan cho'kindi turiga ko'ra: Qumariq (Shahrisabz, Qamashi, Qarshi, Mirishkor, Sariosiyo, Dehqonobod t.), Тошлиариқ (Касби т.).
 16. Ariqning joylashish manziliga ko'ra: Dashtariq (Shahrisabz, Qarshi, Dehqonobod t.).
 17. Asosiy ariqni belgilashga ko'ra: Boshariq (Qumqo'rg'on, Kasbi t.).
- Xulosa sifatida aytish mumkinki, ariq komponentli gidronimlar respublikamiz, shu jumladan Janubiy O'zbekiston territoriyasida juda ko'p va ularning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish onomastika fani oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1 жилд. – Т, 2020. – Б. 98.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1 жилд. – Т., 2000. – Б. 410.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. 1 жилд. – Б.31-32.